



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

AHOLINING DAROMADINI OSHIRISHDA KICHIK BIZNESNING AHAMIYATINI STATISTIK O'RGANISH

Qurbonboyev Abdulla Mansur o‘g‘li

TDIU Iqtisodiy statistika kafedrasi assistenti

E-mail: aqm97@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0008-7660-4456>

+998900960024

Annotatsiya:

Ushbu maqolada kichik biznesning aholi daromadini oshirishdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kichik biznesning rivojlanishi bandlik darajasining oshishi, uy xo‘jaliklarining daromadlarini ko‘paytirish va iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

Maqolada xalqaro va O‘zbekiston tajribasiga asoslangan holda, kichik biznesning iqtisodiy barqarorlikka ta’siri statistik tahlillar asosida ko‘rib chiqiladi.

Shuningdek, maqolada kichik biznes egalari duch keladigan asosiy muammolar – moliyaviy resurslarga cheklangan kirish, soliq yukining yuqoriligi va infratuzilma kamchiliklari – atroflicha muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, kichik biznesni rivojlanirish orqali aholi daromadini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, aholi daromadi, bandlik, moliyaviy resurslar, soliq yengilliklari, iqtisodiy rivojlanish.

СТАТИСТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ЗНАЧЕНИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА В УВЕЛИЧЕНИИ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ

Qurbonboyev Abdulla Mansur o‘g‘li

TDIU Iqtisodiy statistika kafedrasi assistenti

E-mail: aqm97@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0008-7660-4456>

+998900960024



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

Аннотация:

В данной статье анализируется роль малого бизнеса в повышении доходов населения. Результаты исследования показывают, что развитие малого бизнеса способствует росту уровня занятости, увеличению доходов домохозяйств и стимулированию экономической активности.

В статье на основе международного и узбекистанского опыта рассматривается влияние малого бизнеса на экономическую стабильность с использованием статистического анализа.

Кроме того, подробно обсуждаются основные проблемы, с которыми сталкиваются владельцы малого бизнеса – ограниченный доступ к финансовым ресурсам, высокая налоговая нагрузка и недостатки инфраструктуры. На основе результатов исследования предлагаются рекомендации и предложения, направленные на повышение доходов населения через развитие малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, доходы населения, занятость, финансовые ресурсы, налоговые льготы, экономическое развитие.

STATISTICAL STUDY OF THE IMPORTANCE OF SMALL BUSINESS IN INCREASING HOUSEHOLD INCOME

Qurbanboyev Abdulla Mansur o‘g‘li
TDIU Iqtisodiy statistika kafedrasи assistenti
E-mail: aqm97@mail.ru
<https://orcid.org/0009-0008-7660-4456>
+998900960024

Annotation:

This article analyzes the role of small businesses in increasing household income. The research findings indicate that the development of small businesses contributes to higher employment rates, increased household incomes, and the stimulation of economic activity.

The article examines the impact of small businesses on economic stability based on statistical analyses and draws from both international and Uzbekistan's experiences.



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

Additionally, it discusses the key challenges faced by small business owners, including limited access to financial resources, high tax burdens, and infrastructure deficiencies. Based on the research results, recommendations and proposals are provided to enhance household income through the development of small businesses.

Keywords: small business, household income, employment, financial resources, tax incentives, economic development.

KIRISH

Kichik biznes bugungi global iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratish, balki aholi daromadlarini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Jahon Bankining 2023-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, kichik va o‘rta biznes subyektlari dunyo bo‘ylab ish o‘rinlarining 50% dan ortig‘ini ta’minlaydi va aksariyat mamlakatlarda YAIMning

40-60% ini tashkil etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa kichik biznes aholi bandligini ta’minlash va daromadni oshirish uchun eng samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ham kichik biznesning o‘rni tobora ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining 2023-yilgi hisobotiga ko‘ra, mamlakat YAIMning 56%ini kichik biznes subyektlari tashkil qiladi. Yuqoridaqilardan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-fevraldagи PQ-64 son “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida Mamlakatimizda ehtiyojmand aholini o‘zini o‘zi daromadli mehnat bilan band qilish, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, hunarmandchilik va kasanachilik bilan shug‘ullanuvchi ishsiz fuqarolarga asbob-uskunalar va xomashyo xaridi uchun davlat tomonidan subsidiya va boshqa moliyaviy yordamlarni ajratish tizimi joriy etilgan bo‘lib, ushbu maqsadlarga har yili 140 mingdan ortiq aholiga mablag‘lar ajratilayotganligi, kelgusida aholiga moliyaviy yordamlarni ajratish tizimini



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

soddalashtirish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish hamda manzillilagini ta'minlash, aholini tadbirkorlikka jalb qilish, aylanma mablag'lari bilan ta'minlash hamda Ijtimoiy himoya yagona reyestri va Kambag'al oilalar reyestriga kiritilgan oilalar a'zolariga o'z faoliyatini boshlashi uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalarni xarid qilishga ajratiladigan subsidiyalar o'rniga foizsiz ssuda ajratish tizimini joriy etish, aholi tomonidan qiziqish bildirilmagan, uzoq davr mobaynida foydalanilmayotgan va samaradorligi past bo'lgan subsidiyalarni bekor qilish hamda bir-birini takrorlovchi subsidiyalarni birlashtirish, mahallalarning ixtisoslashuvi va drayver yo'naliшlaridan kelib chiqib, kambag'al oilalarga tadbirkorlik hamda dehqonchilik bilan shug'ullanishi uchun grant va foizsiz ssudalar ajratish tizimini joriy etish masalalari ustuvor vazifa qilib belgilangan. [1]

Ushbu maqolada kichik biznesning aholi daromadiga ta'siri ilmiy tadqiqotlar va statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, kichik biznes orqali aholining daromadlarini oshirish bo'yicha mavjud muammolar va ularni hal qilish yo'llari muhokama qilinadi.

Adabiyotlar sharhi

Kichik biznesning aholi daromadiga ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik faqat iqtisodiy rivojlanish uchun emas, balki aholining umumiy farovonligini oshirish uchun ham muhim omildir. Ushbu bo'limda xorijiy va mahalliy ilmiy taqdapotchilarining ushbu masalaga bag'ishlangan tadqiqotlari tahlil qilinadi.

A.Alqatan, N.Talbi va H.Behbehani mikrokredit dasturlarining uy xo'jaliklari daromadiga ta'sirini o'rgangan. Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik biznes rivojlangan hududlarda uy xo'jaliklarining o'rtacha daromadi 25-30% gacha oshadi. Ayniqsa, past daromadli qatlam uchun mikromoliyalash dasturlari orqali biznes yuritish daromad tengsizliklarini kamaytirish uchun samarali vosita ekanligi aniqlangan.[2]

P.Christiaan va L.Wong moliyaviy inklyuziyaning qishloq hududlaridagi aholi daromadiga ta'sirini tahlil qilgan Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes rivojiga yo'naltirilgan kreditlar va davlat dasturlari orqali qishloq aholisining daromadi 40% gacha oshishi mumkin. [3]



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

Mahalliy taqdriqotchilardan D.Matalova va F.Jumaniyazova O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish muammolarini va ularning aholi daromadiga ta'sirini o'rghanishgan. Tadqiqotga ko'ra, kichik biznesning rivojlanishi natijasida oilaviy daromad 15-25% gacha oshishi mumkin. Biroq, mualliflar kichik biznes egalari duch keladigan asosiy muammolar sifatida soliq yukining yuqoriligi va kredit resurslariga cheklangan kirish imkoniyatini ko'rsatishgan. [4]

Kichik biznesning aholi daromadiga ta'siri bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, ushbu sektor nafaqat iqtisodiy rivojlanishning muhim drayveri, balki aholining umumiylarini farovonligini oshirish uchun ham samarali vosita hisoblanadi.

Umuman olganda, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali davlat siyosati, jumladan, raqamlar texnologiyalarni joriy etish, soddalashtirilgan kreditlash tizimlarini rivojlantirish va soliq yengilliklari berish orqali ushbu sektorning aholi daromadlariga bo'lgan ta'sirini yanada oshirish mumkin. Shu sababli, kichik biznesga qaratilgan strategiyalar milliy iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot kichik biznesning aholi daromadiga ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, miqdoriy va sifatiy tadqiqot usullari kombinatsiyasidan foydalanildi,

mavzu doirasidagi mamlakatimiz Prezidentining qaror va farmonlari, kichik biznesning aholi daromadiga ta'siri bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi, tadqiqotning asosiy maqsadi kichik biznes rivojlanishining aholi daromadiga ta'sirini miqdoriy jihatdan baholashga qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun davlat tomonidan quyidagi imkoniyatlar taqdim etilmoqda:

Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash dasturi doirasida tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va boshqa moliyaviy yordamlar ko'rsatilishi, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va muhandislik-



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

kommunikatsiya tarmoqlariga ulash tartibi soddalashtirilishi, davlat boji stavkalari kamaytirilishi, kichik biznesga ko'maklashish markazlari tomonidan tadbirkorlar uchun o'quv kurslari va konsultativ xizmatlar tashkil etilishi, soliq tizimini soddalashtirish va tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlarini taqdim etish orqali biznes yuritish sharoitlari yaxshilandi.

Ushbu chora-tadbirlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qilmoqda hamda oxirgi yillarda kichik biznes subyektlarining soni ortishiga xizmat qilmoqda.

1-jadval 2020-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan Kichik biznes subyektlari soni va Aholi umumiylar daromadlari hajmi (mlrd so'm)

Yillar	Kichik biznes subyektlari soni	O'sish surati (%)	Aholi umumiylar daromadlari hajmi (mlrd so'm)	O'sish surati (%)
2020	334767	-	431182,4	-
2021	411203	122,83	538450,7	124,88
2022	462834	112,56	654993,3	121,64
2023	523556	113,12	756084,2	115,43
2024	417080	79,66	896274,4	118,54

Manba: O'zbekiston Republikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Yuqorida jadval ma'lumotlaridan ko'rilib turibdiki, so'ngi yillarda kichik biznes subyektlari soniga nazar solsak **2021-yilda** kichik biznes subyektlari soni **22,83% ga oshib**, eng yuqori o'sish suratini qayd etgan. **2022-2023 yillarda** ham o'sish davom etgan, ammo o'sish sur'ati sekinlashganligini ko'rishimiz mumkin. 2024-yilga kelib esa kichik biznes subyektlari soni 20,34% ga keskin kamaygan. Bu ayrim faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining tugatilishi yoki boshqa omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Aholi umumiylar daromadlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu yerda ham eng yuqori o'sish surati 24,88% ni tashkil etib **2021-yilda** qayd etilganligini, 2022-2023 yillarda



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

daromadlarning o'sish sur'ati pasayib bu kichik biznes o'sishining sustlashishi bilan bog'liqligini ko'rshimiz mumkin.

Umuman olib qaraganda 2021-2023 yillarda kichik biznes subyektlari soni ko'paygan, va bu aholi umumiy daromadlarining ham o'sishiga hissa qo'shgan.

2024-yilda kichik biznes subyektlari keskin kamaygan (-20,34%), lekin aholi daromadlari baribir o'sishda davom etgan (18,54%).

Bu shuni anglatadiki, aholi daromadlarining o'sishiga faqat kichik biznes emas, balki boshqa omillar Masalan: ish haqi, yirik korxonalar, eksport va davlat dasturlari aholi umumiy daromadlarining o'sishiga ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib umuiy xulosa qiladigan bo'lsak 2021-2023-yillar kichik biznesning o'sishi aholi daromadlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan, 2024-yilda esa kichik biznesning keskin kamayishi iqtisodiy muammolarga ishora qiladi, lekin aholi daromadlari o'sishda davom etgan.

Bu iqtisodiy islohotlar yoki bozor sharoitlari o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin.

Xulosa va natijalar

Ushbu tadqiqot kichik biznes subyektlari soni va aholi umumiy daromadlarining 2020-2024 yillardagi o'zgarishlarini tahlil qilib, ularning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini baholadi. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes iqtisodiyotning muhim qismi bo'lib, uning o'sishi aholi daromadlarining ortishiga bevosita ta'sir qiladi.

2021-2023 yillarda kichik biznes sezilarli darajada o'sdi va natijada aholi daromadlari ham oshdi. Biroq, 2024-yilda kichik biznes subyektlari sonining kamayishi kuzatildi, bu esa iqtisodiy muhit yoki biznes yuritish sharoitlarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, aholi daromadlarining o'sishda davom etishi iqtisodiyotda boshqa sektorlarning (yirik sanoat, eksport, investitsiyalar) ham muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Shu sababli, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun quyidagi tavsiyalar berilishi mumkin:

- Kichik biznes uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish va kredit olish imkoniyatlarini yaxshilash;



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

- Innovatsion va eksportga yo‘naltirilgan kichik korxonalarni rivojlantirishga e’tibor qaratish;
- Yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan davlat dasturlarini amalga oshirish.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes va aholi daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlik iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib qolmoqda. Shu boisdan, iqtisodiy islohotlar kichik biznesning barqaror rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilishi kerak

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2025-yil 18-fevraldagi PQ-64 son qarori
2. A.Alqatan, N.Talbi va H.Behbehani Dynamic Interaction Between Microfinance and Household Well-Being: Evidence from the Microcredit Progressive Model for Sustainable Development <https://www.mdpi.com/2225-1146/13/1/12>
3. P.Christiaan va L.Wong Financial Inclusion as a Tool for Economic Empowerment of Rural Communities
4. D.Mutalova va F.Jumaniyazova O‘zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish muammolarini yechishning real omili <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/125>
5. stat.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti.
6. imv.uz O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti.
7. prezident.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning rasmiy sayti.
8. undp.org BMTning rasmiy web sayti